

## X. ISTE'MOL BOZORI

2021- yilning yanvar–iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 4 310,1 mlrd.so‘mni yoki 2020- yilning shu davriga nisbatan 104,1 % ni tashkil qildi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasi 24,6 % ga kamayib, 577,0 mlrd.so‘mni va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 13,4 % ni tashkil qildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5,5 % ga o‘tib, 3 021,6 mlrd. so‘mga etdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 70,1 % ni tashkil qildi.

Umumiy tovar aylanmasi hajmining 711,4 mlrd. so‘mi uyushmagan savdo (dehqon va chorva bozorlari) hisobiga to‘g‘ri keldi va o‘shir sur‘ati 2020- yilning shu davriga nisbatan 40,5 % ga oshdi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 16,5 % ga teng bo‘ldi.

### Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi

(2021- yilning yanvar–iyun holatiga)




2021- yilning yanvar–iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi davlat va nodavlat shakllari bo‘yicha quyidagicha ifodalanadi.

Davlat mulki 1,8 mlrd.so‘mni, nodavlat mulki 4 308,3 mlrd.so‘mni tashkil qildi.

*Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Urganch shahri 33,5 %, Hazorasp tumani 10,5 % hisobiga to‘g‘ri keladi. Shuningdek: Tuproqqal‘a tumani 2,2 %, Yangibozor tumani 2,2 %, Xiva tumani 2,5 %, va Xiva shahri 3,9 % eng past ko‘rsatkichni qayd etdi.*

### Hududlarning jami chakana tovar aylanmasidagi ulushi (% hisobida)



2021- yilning yanvar-iyun oylarida yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasida o'sish sur'ati 75,1 % ni tashkil etdi. O'z navbatida, Yangibozor tumanida (2020- yilning shu davriga nisbatan 4,8 martaga), Tuproqqal'a tumanida (4,4 martaga), Hazorasp tumanida (2,4 martaga) va Qo'shko'pir tumanida (141,5 foizga) yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 42,3 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,6 % ni tashkil qildi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,0 % ni tashkil etdi. Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Urganch shahri 41,6 %, Urganch tumani 16,2 % hisobiga to'g'ri keldi. Shuningdek, Tuproqqal'a tumani 1,7 % va Yangiariq tumani 1,8 % ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi**  
(umumiy ovqatlanishni qo‘shgan holda)

	<i>Jami</i>		<i>Aholi jon boshiga</i>	
	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>2020- yil yanvar-iyunt oylariga nisbatan% da</i>	<i>ming so‘m</i>	<i>2020- yil yanvar-iyunt oylariga nisbatan% da</i>
<b>Viloyat bo‘yicha jami:</b>	<b>4310,1</b>	<b>104,1</b>	<b>2269,9</b>	<b>102,6</b>
Urganch shahar	1444,9	96,2	9 951,0	95,5
Xiva shahar	166,3	104,0	1 773,0	102,4
tumanlar:				
Bog‘ot	230,4	111,0	1 378,8	109,1
Gurlan	365,9	109,8	2 440,8	108,5
Qo‘shko‘pir	182,9	110,5	1 050,6	109,1
Urganch	426,1	103,0	2 107,2	101,1
Hazorasp	450,9	111,5	2 297,0	109,8
Tuproqqal‘a	94,5	111,6	1 696,7	110,4
Xonqa	269,0	111,2	1 424,0	109,5
Xiva	109,5	104,5	741,6	102,7
Shovot	296,9	112,0	1 725,3	110,4
Yangiariq	177,1	103,6	1 507,1	102,1
Yangibozor	95,7	110,1	1 083,5	108,7

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish tashkilotlarini qo‘shgan holda) aholi jon boshiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 102,6 % bo‘lib, 2 269,9 ming so‘mni tashkil etdi (2020- yil yanvar-iyun oylarida 1 976,2 ming so‘m). O‘rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko‘rsatkichlarini Urganch shahri (9 951,0 ming so‘m), Gurlan tumanida (2 440,8 ming so‘m) va Hazorasp tumanida (2 297,0 ming so‘m), eng past ko‘rsatkichlar esa Xiva tumanida (741,6 ming so‘m), Qo‘shko‘pir tumanida (1 050,6 ming so‘m) qayd etdi.

**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning (uyushmagan savdo ko‘shilgan xolda)  
ulushi, %**



2021- yilning yanvar–iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 269,1 mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 97,9 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining ulgurji savdo tovar aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 86,7 % ni tashkil qilib, ulardagi hajm 354,7 mlrd. so‘m bo‘ldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 103,0 % ni tashkil qilib, 914,4 mlrd. so‘m bo‘ldi va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 72,1 % ni tashkil qildi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi**

	<i>Jami mln. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan %da</i>	<i>Yirik korxonalar mln. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan %da</i>	<i>Kichik korxonalar mln. so‘m</i>	<i>O‘tgan yilning shu davriga nisbatan %da</i>
<b>Viloyat bo‘yicha jami:</b>	<b>1 269 071,4</b>	<b>97,9</b>	<b>354 679,6</b>	<b>86,7</b>	<b>914 391,8</b>	<b>103,0</b>
Urganch shahar	532 831,2	87,1	112 959,3	61,9	419 871,8	97,8
Xiva shahar	40 445,4	99,4	470,3	129,6	39 975,1	99,1
<i>tumanlar:</i>						
Bog‘ot	40 090,3	298,7	26 677,4	3690,9 m.	13 412,9	100,0
Gurlan	91 798,0	368,0	67 367,6	1052,3 m.	24 430,5	98,2
Qo‘shko‘pir	6 642,7	99,9	5,9	29,8	6 636,7	100,1
Urganch	324 432,0	97,1	142 015,1	94,1	182 416,9	99,6
Hazorasp	17 463,8	101,4	266,9	13,1 m.	17 196,9	99,9
Tuproqqal‘a	6 418,8	8,9	17,8	0,0	6 401,0	98,8
Xonqa	53 705,9	89,1	3 827,9	40,5	49 878,0	98,1
Xiva	104 715,5	154,5	108,4	132,7	104 607,1	154,5
Shovot	22 027,0	98,8	42,6	2,3 m.	21 984,4	98,6
Yangiariq	10 916,6	105,1	175,4	7,7 m.	10 741,2	103,6
Yangibozor	17 584,3	117,6	744,8	35,6 m.	16 839,5	112,8